

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**AGZAMXODJAYEVA SHAXNOZA SAITMATMOBOVNA**

**ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFIIY QARASHLARIDA  
INSON MUAMMOSI KONSEPSIYASI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Agzamxodjayeva Shaxnoza Saitmatmobovna**

Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarida inson muammosi

konsepsiyasi ..... 3

**Агзамходжаева Шахноза Сaitмaтмобовна**

Концепция проблемы человека в суфийских взглядах Алишера Навои.....34

**Agzamkhojayeva Shakhnoza Saitmatmobovna**

The concept of the human problem in the Sufi views of Alisher Navoi..... 68

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....73

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**AGZAMXODJAYEVA SHAXNOZA SAITMATMOBOVNA**

**ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFİY QARASHLARIDA  
INSON MUAMMOSI KONSEPSIYASI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.1.DSc/Fal115 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy Davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Safarova Nigora Olimovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xolmo'minov Ja'far Muhammadiyevich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Xoshimxonov Mo'minxon**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Isaqova Zamiraxon Ruhitdinovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil \_\_\_\_\_dagi soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona. Tel.: (99871) 246-02-24, faks: (99871) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz.).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (54-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil \_\_ \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2023 yil \_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**I.Saifnazarov**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, falsafa fanlari  
doktori, professor

**G.M.Ruzmatova**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**J.Ramatov**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda tobora kuchayib borayotgan global muammolar sharoitida ijtimoiy tafakkurning yetakchi vakillari o'tmishning buyuk mutafakkirlari merosiga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar. Zero, ularning o'lmas asarlarida ilgari surilgan g'oyalaridan hozirgi davrda insoniyatni tashvishga solayotgan muammolarga yechim topish mumkin. Ana shunday tafakkur sohiblaridan biri – buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, temuriylar davrining atoqli davlat va jamoat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bo'lib, uning ijodi jahon hamjamiyatining e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Alisher Navoiy jahon adabiyotining Gomer, Dante, Shekspir, Firdavsiy, Nizomiy kabi klassiklari qatorida hozirgi zamon ilm-fani va adabiyoti uchun ham boy materiallar berib kelmoqda.

Dunyoda bir qator yetakchi oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda ulug' mutafakkirning hayoti-faoliyati, falsafiy-axloqiy ta'limoti va insonparvarlik g'oyalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilayotgani navoiyshunoslikning jahon ilmiy yo'nalishi sifatida shakllanganidan dalolat beradi. G'arb va Sharq ilm-fanida Alisher Navoiy jahon adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri bo'lib, Markaziy Osiyo va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishi va takomillashuvining umumiy tarixiga salmoqli hissa qo'shgan chuqur minnatdorlik bilan qayd etiladi. Shoir bibliograflari guvohlik berishicha, bugungi kunga qadar Navoiy hayoti va ijodiy tarjimai holi haqida jahon miqyosida, xususan, G'arbiy Yevropada mingdan ortiq kitob, dissertatsiya va maqolalar yozilgan.

O'tgan 30 yil ichida o'zbek navoiyshunosligi totalitar o'tmishning mafkuraviy qarashlaridan voz kechilishi tufayli yangi taraqqiyot va yuksalish bosqichiga qadam qo'ydi. Alisher Navoiy ijodi sho'rolar mafkurasi davrida chetlab o'tilgan yoki bir yoqlama talqin qilingan diniy-falsafiy dunyoqarashi, tasavvufiy jihatlarini faqat mustaqillik davrida qayta ko'rib chiqildi. «Jonajon Vatanimiz «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda»<sup>1</sup>.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 oktyabrda "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4865-sonli, 2021 yil 4 fevraldagi "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4977-sonli, 2016 yil 13 maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-152-sonli, 2017 yil 18 apreldagi "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i hududida adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida"gi PQ-2894-sonli Qarorlarida hamda shu

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 19.10.2020 йилдаги ПҚ-4865-сонли "Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида" қарори. <https://lex.uz/docs/5054929>.

sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari»ning ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Alisher Navoiy shaxsi, ijodiy merosi dunyo olimlari va mutaxassislarida katta qiziqish uyg'otgan. Xususan, rus sharqshunosi M.Nikitskiy, turk olimlari A.Vogif, Aybeg, A.Hikmet, N.Vei, fransuz sharqshunoslari S.Sasi, L.Buvay, nemis sharqshunoslari V.Baft, K.Ekmann, V.Xinz, venger olimi G.Vamberi, A.Shakirzode, A.Levend, ingliz olimlari E.Gibb, X.Prugshtal, P.Kortelli, kanadalik olim G.Dikk, eronlik N.L.Amir kabi navoiyshunoslarni sanab o'tish mumkin.

Uyg'ur adabiyotshunosligida Alisher Navoiy mavzusi azaldan tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Mashhur uyg'ur shoiri A.Nizoriy tomonidan o'ziga xos syujet asosids yaratilgan "Muhabbat dostonlari" deb nomlangan "Xamsa"sidagi ko'pgina nom va atamalar Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari nomi bilan hamohangdir.

Shuningdek, S.Malov, A.Ziyoi, M.Hamrayev, Yu.Muxlisov, U.Mamatxunov, S.Erkinov, R.Qodiriy, Sh.Umar, V.Gupur, A.Husayn, T.Aliev, S.Mullaodov, L.Ro'ziyeva, I.Imirov, Q.Hasanov, M.Hamroyev, Y.Muxlisov, R.Qodiriy, I.Ro'ziyev va L.Rayxonov<sup>2</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlarini alohida ta'kidlash lozim.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Alisher Navoiyning boy merosi ko'plab tadqiqotchilarni jalb etgan va hozir ham bu davom etmoqda. O'tmish mutafakkirlarining hech birida Alisher Navoiydek ko'p muxlis va tadqiqotchilar yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'tgan yillarda Fitrat, Oybek, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy, Olim Sharafuddinov, Maqsud Shayxzoda, Hamid Sulaymon, Natan Mallayev, Rahim Majidiy, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, A. Hayitmetov, Aziz Qayumov, Suyuma G'anieva, Malik Oripov, Najmiddin Komilov, Ibrohim Xaqqulov, Shuhrat Sirojiddinov, Sultonmurod Olimov, Xamidulla Boltaboyev, Ja'far Xolmo'minov, Olimjon Davlatov kabi atoqli olimlar rahbarlik qilgan butun navoiyshunoslik maktablari shakllandi.

Xorijiy va mahalliy ilm-fanda Alisher Navoiyning ma'naviy, axloqiy, estetik qarashlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Alisher Navoiy ijodini falsafiy jihatdan tadqiq etgan olimlar qatorida N.Mallayev, E.E.Bertels, V.Zohidov, I.M.Mo'minov, M.Xayrullayev, H.Alikulov, M.Aripov<sup>3</sup> va boshqalarni tilga olish mumkin.

---

<sup>2</sup> Ushbu mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'xatida keltirilgan.

<sup>3</sup> Маллаев Н.М. Алишер Навоий. Ўзбек адабиёти тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи 1965. -С 399-626; Бертельс Е.Э. Навои и Аттар // Суфизм и суфийская литература. - Москва, 1965; Бертельс Е.Э. Избранные труды «Навои и Джами». - Москва: Издательство «Наука», 1965; Захидов В.Ю. Мир идей и образов Алишера Навои. - Ташкент: Изд-во худ. литературы Узбекской ССР, 1961; Муминов И.М. Выдающиеся мыслители Средней

Alisher Navoiy qarashlari, ayniqsa, N.Mallayev asarlarida batafsil yoritilgan bo‘lib, allomani “Haqiqat izlagan mutafakkir shoir” sifatida tafsiflangan. N.Mallayev shunday yozadi: “Navoiy hayoti – bu inson baxti-saodati, xalq tinchligi va farovonligi, madaniyat va maorif ravnaqi uchun tinimsiz kurash onidir”<sup>4</sup>. Xususan, N.Mallayev shoirning din va tasavvufga munosabatini o‘rganar ekan, bular Navoiy ijodida asosiy mavzu emas, deb hisoblaydi va bu jihatlariga tanqidiy yondashadi<sup>5</sup>.

Alisher Navoiy asarlaridagi tasavvuf muammosi va uning bu ta’limotga munosabati ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, M.Shayxzoda Alisher Navoiyning asarlarida “Ilohning mohiyatini tasavvufiy tushunish” mavjudligini qayd etib, “Navoiy na amaliy, na nazariy ma’noda hech qachon sufiy bo‘lmagan”<sup>6</sup>, deb ta’kidlaydi. Bu fikrni taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetov ham tasdiqlab, “Navoiy ham boshqa ilg‘or shoirlar kabi tasavvufiy shoir bo‘lmagan”<sup>7</sup>, deb uqtiradi.

Akademik V.Zohidovning “Ulug‘ shoir ijodining qalbi”<sup>8</sup> asari Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda kamolotga erishgan qahramonlarning badiiy obrazlari tavsiflanadi va Alisher Navoiyning tasavvuf ta’limotiga munosabati ko‘rib chiqilgan. Zohidov shoirning shaxsiyati va ijodiyotiga ziddiyatli baho bergan. U bunday yozgan: «Navoiyning dinga munosabati uning dunyoqarashidagi eng murakkab va chigal masalalardan biridir. Bu masalaning murakkabligi shundan ham asosan kelib chiqadiki, birinchidan, Alisher Navoiyda bu masalada juda ko‘p ziddiyatli fikrlar uchraydi va, ikkinchidan, u o‘zining fikrlarini o‘sha davr taqozasi bilan izohlagan holda taktik nuqtai nazardan har xil shakllarga, turli so‘z o‘yinlariga, mavxum formulirovkalarda yashirishga intilgan»<sup>9</sup>.

---

Азии. – Москва: Знание, 1966; Хайруллаев М.М. Навоий дунёқарашининг ғоявий манбаларини ўрганиш ҳақида // Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968; Аликулов Х. Социально-утопические идеи в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1983; Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. – Ташкент: Узбекистан 1991; Мирзаев А.А. Навоийнинг форс-тожик тилидаги мероси ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари”. № 8 - 1966; Олимжонов Ҳ. (Ҳамид Олимжон) “Фарҳод ва Ширин” ҳақида. Танланган асарлар 1960, 3-т; Сулаймонов Ҳ (Ҳ. Сулаймон) Навоий асарлари ва наشري ҳақида. А.Навоий 15 томлик. 1-жилд. Ўзадабий нашр. – Тошкент. 1963; Султанов И. Книга признаний Навои. - Ташкент: Г.Гулям, 1979. - С.328; Шарафутдинов О. Баҳром Гўр ва “Сабаи Сайёр” тўғрисида А.Навоий. Танланган асарлар 2- жилд 4-китоб. Тошкент, 1948; Ғаниева С. Алишер Навоий “Ўзадабий нашр”. – Тошкент, 1962; Ғаниева С. “Навоий ангак” боби вафо ёзилмайдур. // Тафаккур. № 2. – 2008. - 72-73 б; Хайтметов А. Навоийнинг ижодий методи. – Тошкент, 1965; Хайруллаев М.А. Навоий дунёқарашининг ғоявий манбалари. // “Шарқ юлдузи”. № 4. – 1967; Хусанхўжаев И. Навоий таълим-тарбия ҳақида. «Ўрта ва олий мактаби» наشري. – Тошкент, 1963; Муминов И. Ўзбекистонда ижтимоий фалсафий тафаккурнинг ривожланиши тарихидан. – Тошкент, 1960; Шамсиев П. “Сабаи сайёр” достонининг илмий-критик текстини нашрга тайёрлаш принциплари ҳақида. Алишер Навоий. “Сабаи сайёр” ЎзССР ФА наشري. – Тошкент, 1965; Айни С. Навои. – Сталинабад, 1948; Айни С.К. Великий творец поэмы “Саламан и Абсаль”. Вводная статья к книге “Саламан и Абсаль”. - Душанбе: Ирфан. 1977. - С.7-15; Имомназаров М. Ҳақиқат ва мажоз.// Шарқ юлдузи. № 4. – 1988. - 176-181 б.; 1991. - 159-164 б.; Комилов Н. Аҳд қилдим: ишқ лафзин тилга мазкур этмайман. // Шарқ юлдузи. № 4. - 1990. - 156-159 б.; Шейхзаде М. Навои и наше время.// Родоначальник узбекской литературы. – Ташкент, 1940 - С.100,112; Шейхзаде М. Асрлар Оша // «Шарқ Юлдузи”. № 2. - 1966; Ғаниева С. Куш тили ишорати билан. Предисловие к книге А.Навои Лисонут-тайр. - Ташкент: Г.Гулям, 1984. - С.5-20.

<sup>4</sup> Маллаев Н. «Говорит сердце художника-мыслителя». Послесловие к 10-тому Навои. – Тошкент, 2009.

<sup>5</sup> Маллаев Н.М. Алишер Навоий. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.

<sup>6</sup> Шейхзаде М. Навои и наше время. // Родоначальник узбекской литературы. – Ташкент, 1940. - Стр.100,112.

<sup>7</sup> Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. - Ташкент: Узбекистон, 1991. - С.74

<sup>8</sup> Қаранг: В.Зоҳидов. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Тошкент, Ўзбекистон, 1970. - 495 бет.

<sup>9</sup> В.Зоҳидов. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Тошкент, Ўзбекистон, 1970. - Б.236.

M.Oripov Alisher Navoiy ta'limotini, uning ijodidagi insonparvarlikning g'oyaviy manbalarini va "Vahdat ul-vujud" tushunchasini tadqiq etar ekan, shunday deb ta'kidlaydi: "Tasavvuf Alisher Navoiy dunyoqarashida aynan g'oyaviy-nazariy ta'limot sifatida aks etgan, shoirning falsafiy va axloqiy qarashlari tizimini shakllantirishga xizmat qilgan. Alisher Navoiy nafaqat sufiylik timsollari va atamalaridan foydalangan, balki tasavvuf nazariyasini ham puxta egallagan, ustoz Jomiydan "g'ayb ilmi"ni (botiniy ilmni) olgan"<sup>10</sup>.

Alisher Navoiyning alohida asarlari mashhur sharqshunos olim E.Bertelsning tadqiqot ob'ekti bo'lgan. Shoir qahramonlari hayotining asosiy maqsadi xalqqa xizmat qilish, uning manfaatlarini himoya qilish, insonparvarlik, adolat va halollik ekanligini ta'kidladi<sup>11</sup>.

E.Bertels Alisher Navoiyning tasavvuf ta'limotiga munosabati haqida shunday yozadi: «Navoiy tasavvufning butun axloqiy tomonlarini o'rgandi, oliy maqsadlari sari bordi. U tasavvufning ishtiyoqli muxlisi, qalbi sufiy, bu ta'limotning mutaxassisi bo'lgan, ammo tasavvufiy amaliyotchi bo'lmagan<sup>12</sup>.

Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Davoniylarning davlat va jamiyat haqidagi qarashlari bilan qiyosiy o'rganish masalasi H.Aliqulov tadqiqotlarida batafsil yoritilgan<sup>13</sup>.

Sovet davri navoiyshunosligida Alisher Navoiyning ilohiyotni anglash, xudoga munosabat, tasavvuf va tasavvufiy g'oyalari e'tibordan chetda qolib kelgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Alisher Navoiy ijodiga yangicha nazar tashlash imkoniyati paydo bo'ldi. Navoiyshunoslarning butun bir jamoasi – N.Komilov, I.Haqqul, Sh.Sirojiddinov, H.Boltaboyev, J.Xolmo'minov, S.Olim, A.Erkinov, E.Ochilov<sup>14</sup> va boshqalar yetishib chiqdi.

Sultonmurod Olimning tadqiqoti mutafakkir ijodining ayrim munozarali fikrlariga, jumladan Alisher Navoiy Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy va boshqalar kabi tariqat va o'ziga xos xudoni bilish yo'lining ijodkori bo'lganmi, degan masalalarga bag'ishlangan<sup>15</sup>.

<sup>10</sup> Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. – Ташкент: Узбекистан 1991. - С. 77.

<sup>11</sup> Бертельс Е.Э. Избранные труды «Навои и Джами». - Москва: Издательство «Наука» СССР, 1965.

<sup>12</sup> Бертельс Е.Э. Навои и Аттар // Суфизм и суфийская литература. – Москва, 1965. - С.419.

<sup>13</sup> Аликулов Х. Социально-утопические идеи в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1983.

<sup>14</sup> Хожи Абдулғафор Раззоқ Бухорий. Тарикатга йўлланма. - Тошкент: Мовороуннахр 2003. 104 б.; Хосаний М., Каримов С. Навоий даври табобати. - Тошкент: Ибн Сино, 1996. - 124 б.; Умаров Э. Навоийда Ийҳом санъати. // Шарқшунослик. 1994. - №5. - 109-112-б.; Ерёмин Л. Ҳиндистон ва Алишер Навоий. // Шарқшунослик 1994. - № 5. - 145-155-б.; Жузжоний Абдуҳаким Шаръий. Тасаввуф ва инсон. - Тошкент: Адолат, 2001. - 190 б.; Муниров Қ. Алишер Навоийнинг табаррук назари тушган кўлёмалар.//Имом ал Бухорий сабоқлари. 2001. - №4. – Б. 296-297; Жумахўжа Н. Абдий даҳо. // Тафаккур. 2001. - №2. – Б. 24-29; Самад А. Ислом чироғидан кўнгил ёришсин. Предисловие к книге А.Навои Сирожу-л Муслимин. - Ташкент: Мерос-Нур. 1993. - С.3-8.

<sup>15</sup> Олим Султонмурод Мунда фоний бўлмас иш ўлмас тамом. // Шарқ юлдузи. - 154-163 б; Олим Султонмурод Ишқ ошиқ ва маънан. – Тошкент, 1992. - 79 б.; Олим Султонмурод. Нақшбандий ва Навоий. - Тошкент: Ўқитувчи, 1996. - 214 б.; Қаюмов Лазиз. Ўлмас сабоқлар. // Шарқ Юлдузи. 1991. - № 5. - 2-7 б.; Қаюмов Лазиз. "Қилма ситез..." // Тафаккур. 2007. - №2. - 76-77 б.; Ҳаққул Иброҳим. Фақру фанолик хайрати. // Шарқ Юлдузи. 1991. - № 1. - 109-112-б.; Бабур-наме. Записки Бабура - Ташкент: Главная редакция Энциклопедии, 1998.



Alisher Navoiyning falsafiy irfoniy dunyoqarashi o'zbek faylasuf olimlari asosan J.Xolmo'minov, Z.Isaqova va T.Norov tadqiqotlarida o'z aksini topgan<sup>16</sup>.

Tasavvufshunos olim J.Xolmo'minovning tasavvuf falsafasi, jumladan, tasavvuf ontologiyasi<sup>17</sup>, "Vahdat ul-vujud falsafasi va naqshbandiya ta'limoti" kabilarni atroflicha o'rganuvchi tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq<sup>18</sup>. Uning "Qiyosiy tasavvufshunoslik" nomli monografiyasida ushbu mavzu ilmiy jihatdan asoslab berilgan<sup>19</sup>.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili Alisher Navoiy asarlaridagi tasavvuf masalasi, uning inson haqidagi konsepsiyasi mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida yaxlit kompleks o'rganilmaganini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Navoiy davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining ilmiy tadqiqot rejasi doirasida "O'zbekistonda uchinchi Uyg'onish davri asoslarini yaratish sharoitida ijtimoiy fanlarning dolzarb masalalari" mavzusida olib borilgan.

**Tadqiqot maqsadi** Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlaridagi inson muammosini tarixiy, falsafay va diniy nuqtai nazardan ocib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilar:**

Alisher Navoiy tasavvufiy ta'limotini o'rganishning nazariy va uslubiy masalalarini falsafiy ochib berish;

Alisher Navoiyning falsafiy dunyoqarashiga oid tarixiy manbalar o'rnini aniqlash, XX asrda tasavvuf ta'limoti va mutafakkir diniy-tasavvufiy merosini o'rganishga oid turli qarashlarni umumlashtirish;

Alisher Navoiy tasavvufiy dunyoqarashining shakllanishi uning g'oyaviy manbalari, Fariduddin Attorning Alisher Navoiy dunyoqarashiga ta'sirini, mutafakkir ijodida Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa tasavvuf namoyandalari merosining ahamiyatini yoritib berish;

Abdurahmon Jomiyning Alisher Navoiyning ustози (murshidi) sifatidagi rolini ochib berish, tasavvuf ta'limotining falsafiy atamalarni o'rganish, mutafakkir ijodida tasavvuf terminologiyasini rivojlantirish;

Alisher Navoiy tasavvufiy ta'limotida komil inson tushunchasining falsafiy talqinini berish, "Inson – ilohiylikning erdagi timsoli" tezisini tahlil qilish hamda inson hayotining mazmuni, yashashdan maqsadi va ma'naviy barkamolligi haqidagi ta'limotlarini ochib berish;

Alisher Navoiyning inson konsepsiyasining bugungi kun uchun ahamiyatini ko'rsatishdan iborat

---

<sup>16</sup> Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. - Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008: Норов Т.О. Алишер Навоий онтологик қарашларининг фалсафий-концептуал таҳлили. – Т.: IQTISODIYOT, 2021. – 210 б.; Исакова З. Тасаввуф таълимотида орифлик ва валийлик талқини. – Тошкент: Abu matbuot konsalt, 2011. – 296 б.

<sup>17</sup> Холмўминов Ж. Тасаввуф фалсафаси. I-қисм. Тасаввуф онтологияси. – Тошкент: Yosh avlod matbaa, 2021. – 276 б.

<sup>18</sup> Холмўминов Ж. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва Нақшбандия таълимоти. – Тошкент: Тафаккур, 2020. – 324 б.

<sup>19</sup> Холмўминов Ж. Қиёсий тасаввуфшунослик. - Тошкент: Yosh avlod matbaa, 2021. – 200 б.

**Tadqiqot ob’ekti**ni Alisher Navoiyning yaxlit, fundamental tasavvufiy ta’limoti tashkil qiladi.

**Tadqiqot predmeti** Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarida inson muammosi konsepsiyasidan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli va komparativ yondashuv usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr”, “Nazm ul-javohir” “Munojot” asarlarida ilohiy ishq, fanoyi komil g’oyasi asosida mutafakkirning naqshbandiya tariqatiga mansubligi asoslangan;

Farididdin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari mumtoz adabiyot namoyodalari ta’siri ostida Navoiyda tasavvufning zoxidlik, obidlik, oriflik, oqillik kabi shakllanish bosqichlari va uning dunyoqarashiga panteistik ta’siri falsafiy nuqtai nazardan isbotlangan;

Navoiyning inson hayotining mazmun-mohiyati, insonning koinotdagi o’rni, Xaq va xalq oldidagi mas’uliyati haqidagi diniy qarashlari, tasavvuf falsafasida “vahdat ul-vujud” ya’ni, “ilohiyot ilk aktuallik sifatida birlik, abadiyatdan iboratligi” haqidagi qarashlarini ilmiy-falsafiy jihatdan ochib berish orqali Navoiy gumanizmining yaxlit manzarasi yaratilgan;

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” va “Lison ut-tayr” tasavvufiy asarlari sufiylarning “sirli yozuvi” usuli orqali Abjad va Hisob al-Jamol xususiyatlari asosida ochib berilgan;

yoshlarda Alisher Navoiy hayoti va ijodi misolida altruizm, insonparvarlik, tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy mezonlari tarixiylik, mantiqiylik, o’zaro aloqadorlik usullar orqali komil inson shaxsini shakllantirishda ustoz-shogird, murid-murshid munosabatlaridagi qat’iy intizom, tarbiya bosqichlari, falsafiy tafakkur va sufiylar e’tiqodiga xos konsepsiyalari falsafiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

falsafa fanlarini o’qitish jarayonida Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy tafakkuridagi o’rni, xususiyatlari va ahamiyatini chuqur o’rganish bo’yicha ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar berildi. ulardan falsafa fanini o’qitish jarayonida maxsus kurslarda ham keng foydalanish tavsiya etiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot doirasida e’lon qilingan Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to’plamlari, monografiya, OAK ro’yxatidagi kiritilgan maxsus jurnallar, hamda xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tadqiqot xulosalari, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar vakolatli tuzulmalar tomonidan ma’qullanib, amaliyotga joriy etilgani bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** dissertatsiyadan olingan ilmiy xulosalardan ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, falsafa tarixi, dinshunoslik, ma’naviyat asoslari, diniy ta’lim fanlarini o’qitishda, shuningdek, maxsus kurslarda foydalanish mumkin. tadqiqot natijalari falsafa, ontologiya,

ijtimoiy falsafa, axloqshunoslikka oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, testlar, ma'ruzalar, risolalar mazmunini boyitishda xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** shundan iboratki, unda keltirilgan fikr va xulosalardan oliy ta'lim muassasalarida «Falsafa», «Falsafa tarixi», «Din falsafasi», «Dinshunoslik», «Sufiylik falsafasi», «Sufiylik adabiyoti», «Adabiyot», «Alisher Navoiyning hayoti va ilmiy-falsafiy merosi» fanlarini o'qitishda, ushbu fanlar doirasidagi seminarlar, ma'ruzalar, taqdimotlar tayyorlashda, mutafakkir merosini o'rganishga oid ma'naviyat va ma'rifat tadbirlarida va boshqa mutaxassisliklar bo'yicha ilmiy-pedagogik faoliyatda foydalanish mumkin..

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Alisher Navoiyning tasavvufiy ta'limotida inson muammosi konsepsiyasini o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr”, “Nazm ul-javohir” “Munojot” asarlarida ilohiy ishq, fanoyi komil g'oyasi asosida mutafakkirning naqshbandiya tariqatiga mansubligi asoslanganligiga oid taklif va tavsiyalardan A-FA-2019-9-raqamli “Qadimiy yozma noyob qo'lyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish” amaliy loyihasida foydalanilgan (Xorazm Ma'mun akademiyasining 2022 yil 20 oktyabrdagi 232/1-22-son dalolatnoma). Ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilishi grant loyihasini yangi materiallar, faktik ma'lumotlar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

Fariddin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari mumtoz adabiyot namoyodalari ta'siri ostida Navoiyda tasavvufning zoxidlik, obidlik, oriflik, oqillik kabi shakllanish bosqichlari va uning dunyoqarashiga panteistik ta'siri falsafiy nuqtai nazardan isbotlanganligiga oid taklif, xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazida Uchinchi Renessans vorislarini tarbiyalashda va targ'ibot ishlarida, jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining X-yo'nalishida belgilangan “Mamlakatimizda keng nishonlanadigan bayramlar, shonli sanalarni keng aholi orasida targ'ib qilishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish” 44-bandi “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlari munosabati bilan ijtimoiy tarmoqlarda (feysbuk, twitter, odnoklassniki, instagram va mobil messenjerlar) targ'ibot aksiyasini o'tkazish” mavzusidagi targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 yil 6 oktyabrdagi 291-son dalolatnoma). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini shakllantirishda Alisher Navoiyning inson konsepsiyasi yoshlarimizni vatanparvarlik ruhiga tarbiyalashga xizmat qilgan;

Navoiyning inson hayotining mazmun-mohiyati, insonning koinotdagi o'rni, Xaq va xalq oldidagi mas'uliyati haqidagi diniy qarashlari, tasavvuf falsafasida

“vahdat ul-vujud” ya’ni, “ilohiyot ilk aktuallik sifatida birlik, abadiyatdan iboratligi” haqidagi qarashlarini ilmiy-falsafiy jihatdan ochib berish orqali Navoiy gumanizmining yaxlit manzarasi yaratilganligiga oid taklif va xulosalaridan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi o‘z faoliyatida foydalanilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi 2022 yil 20 oktyabrdagi 02/554 - son dalolatnoma). Natijada Uchinchi Renessans yoshlarini komil inson qilib tarbiyalashda, allomalar merosiga bag‘ishlangan kitobxonlik, vatanparvarlik, fidoiylik, Vatanga sadoqatlilik, innovatsion qobiliyatni rivojlantirish sohalaridagi ishlarni samarali tashkil qilishga erishilgan;

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” va “Lison ut-tayr” tasavvufiy asarlari sufiylarning “sirli yozuvi” bilan bog‘liqligi Abjad va Hisob al-Jamol xususiyatlari asosida ishlab chiqilganligiga oid taklif hamda “Alisher Navoiy tasavvufining shakllanishining g‘oyaviy asoslari”, “Inson konsepsiyasining falsafiy-tasavvufiy kategoriyalari” deb nomlangan bo‘limlarida keltirilgan nazariy xulosa va ilmiy natijalaridan O‘zbekiston xalkaro islom akademiyasida №A-1-044 – “Movarounnaxr tasavvuf ta’limotlari: asliyat va talqinlar, tarix va hozirgi zamon, tahlil va xulosalar” nomli amaliy grant loyihasi doirasida nashr etilgan “Tasavvufga kirish” o‘quv qo‘llanmasi, “Tasavvuf atamalari” izohli lug‘atini tayyorlashda, shuningdek, Malaka oshirish markazida otinoyilar uchun tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda diniy-ma’rifiy soxa xodimlari oldida turgan dolzarb vazifalar” mavzusidagi malaka oshirish kurslari o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirdar Mahkamasi xuzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita 2022 yil 26 oktyabr № 02-06/8276-son dalolatnoma). Natijada dissertatsiya xulosalari, taklif va tavsiyalardan diniy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda keng foydalanilgan;

yoshlarda Alisher Navoiy hayoti va ijodi misolida altruizm, insonparvarlik, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ma’naviy-axloqiy mezonlari tarixiylik, mantiqiylik, o‘zaro aloqadorlik usullar orqali komil inson shaxsini shakllantirishda ustoz-shogird, murid-murshid munosabatlaridagi qat’iy intizom, tarbiya bosqichlari, falsafiy tafakkur va sufiylar e’tiqodiga xos konsepsiyalari falsafiy-ilmiy asoslanganligiga doir fikr va xulosalaridan “Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazi tomonidan davra suxbati o‘tkazilgan (“Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazining 2022 yil 26 oktyabrdagi ML 01/01-50-son dalolatnoma) va unda tadqiqot materiallardan o‘rinli foydalanilgan. Natijada mutafakkirning ijodi, ilgari surgan g‘oyalari keng ma’noda insonparvarlikning yorqin timsoli bo‘lib, u milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni qayta tiklashda, uni keng xalq ommasi orasida targ‘ib va tashviq qilishda hamda bugungi kun barkamol avlodini zamon talabiga mos milliy g‘urur, vatanparvarlik, bag‘rikenglik va saxovatpeshalik ruxida tarbiyalash borasida Markaz olib borayotgan amaliy faoliyatida samarali natija berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro, 10 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 46 ta ilmiy ish, jumladan, 4 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 22 ta maqola (10 ta respublika va 12 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 215 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyatiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Alisher Navoiy tasavvufini o'rganishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari, jumladan, uning tasavvuf ta'limotini o'rganishining nazariy-uslubiy jihatlari, mutafakkir ijodining shu mavzudagi noma'lum qirralarini yorituvchi tarixiy, mahalliy va xorijiy manbalar, Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi shoirning o'zi va uning eng yaqin zamondoshlari ijodi o'rganildi.

Birinchi bobning birinchi bandida Navoiyning hayoti va faoliyatiga oid, uning o'z asarlarida va zamondoshlari ijodida keltirilgan ma'lumotlar ko'rib chiqilgan.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar manbalar, albatta, shoirning o'zi va uning eng yaqin zamondoshlari asarlarida keltirilgan. Mutafakkir o'z zamonida tirik afsonaga aylangani bois, keyinchalik uning tarjimai holi turli rivoyatlar va hikoyalar bilan badiiylashtirilgan. Shuning uchun muammoga ishonchli manbalarga tayangan holda faqat so'fiylik nuqtai nazaridan yondashilgan.

Alisher Navoiyning **“Nasoyim ul-muhabbat”** asari tasavvufning buyuk namoyandalarining hayoti, ijodi va ta'limotiga bag'ishlangan. Unda 770 ta ulug' shayxlar, mashhur sufiylar haqida ma'lumotlar berilgan. Shoirning **“Lison ut-tayr”** va **“Nazm-ul-javohir”** asarlari uning diniy qarashlari bayoniga bag'ishlangan. Alisher Navoiy shunday yozgan: «Chun «Lison ut-tayr» ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorin majoz suratida ko'rguzupmen. Chun «Nasr ul-laoliy» xazoini tarjimasiga ettim, «Nazm ul-javohir» bila ma'ni abkorin hullalarin murassa' ettim»<sup>20</sup>.

**“Muhokamat ul-lug'atayn”** yosh Alisherning tasavvuf adabiyotiga qiziqishi shakllanganidan dalolat beradi. «Bulardin dog'i boshqa, yigitligim zamoni va

<sup>20</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи жилд. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент: Фан, 2001. – Б19.

shabob ayyomi avonida ko‘prak she’rda sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash’ori va rangin abyotidin ellik mingdin ortuq yod tutupmep va alar zavqu xushhollig‘idin o‘zumni ovutupmen va salohu fasodlariga fikr aytibmen va maxfiy daqoyiqig‘a taammul va tafakkurlar bila etibmen va forsiy alfoz aybu hunari mulohazasi idrokida tab‘im o‘zin solmaydur, balki ul vodiy qat‘ida kilkim ravandasi tezgomlig‘ bila qadam urmagon er qolmaydur”<sup>21</sup>.

Alisher Navoiy qo‘llagan iboralarni quyidagicha izohlash mumkin: 1) yosh Alisherning fenomenal xotirasi bor edi, chunki har bir bolakay ham ellik mingdan ortiq baytlarni yod olishga qodir emas; 2) u yoshligidayoq she’riyatning nafosatiga rom bo‘lib, eng yoqimli baytlar bilan eng go‘zal baytlarni, qolaversa, asosan forsiyzabon shoirlarni ajrata olgan; 3) bu misralar tasavvufning yirik namoyandalari Mir Qosim Anvar va Farididdin Attor qalamiga mansub bo‘lgani uchun asosan tasavvufiy mazmunda edi.

Dissertatsiyada «Munojot» asari tasavvuf nuqtai nazaridan alohida tahlil qilingan, chunki bu asar to‘liq ilohiyot va tasavvuf bilan bog‘liq. Alisher Navoiy avvalo tariqat egasi, shundan keyingina zabardast shoir, mutafakkir va fuqarodir.

Alisher Navoiyning sufiylik mavqeining shakllanishida ustoz Abdurahmon Jomiyning xizmati juda katta. Uning “Bahoriston”, “Haft avrang” (“Etti taxt”), “Nafahot ul-uns min hazorat ul-kuds” (“Muqaddaslik cho‘qqilaridan ma’naviy yaqinlikning xushbo‘y shamollari”) asarlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud.

Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiyning tasavvuf ta’limoti haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, lekin tanqidiy mazmunda yozgan edi: “Yana Kamoliddin Husayn Gazergohiy ham bor edi. U sufiy bo‘lmasa-da, o‘zini sufiy deb ko‘rsatardi. Shu kabi soxta sufiylar Alisherbek atrofida to‘planishar, zikr tushib, jazavaga tushar edilar. Kamoloddin tasavvuf asoslarini bilar edi”<sup>22</sup>. Alisher Navoiy haddan tashqari ishonuvchan bo‘lganligi, soxta sufiylarni ham o‘ziga yaqinlashtirganini Bobur qayd etadi va hatto, ular bilan birga zikr tushgani, jazba holatiga tushganini ta’kidlaydi.

Birinchi bobning “XX asr navoiyshunosligi Alisher Navoiy falsafiy merosi va tasavvufiga oid” deb nomlangan ikkinchi bandi XX asrning chinakam zafarli asrga aylangan navoiyshunoslik taraqqiyoti natijalari tahliliga bag‘ishlangan. O‘zbekiston eng buyuk shoir va mutafakkirning falsafiy merosidagi insonparvarlik g‘oyalarini o‘rganishning umume’tirof etilgan markaziga aylandi. Butun dunyo shoirni idrok qila boshladi.

Ammo shuni aytish kerakki, XX asrdan avval ham G‘arb Alisher Navoiyni idrok eta boshlagan, chunki buyuk insonparvar shaxsi va merosiga qiziqish faqat SHarq bilan chegaralanmagan edi. Fransuz olimi Artolemed Yerbeloning 1697 yilda nashr etilgan “Sharq kutubxonasi” ensiklopediyasida Navoiyning tarjimai holi va asarlarining nomlari berilgan.

<sup>21</sup> Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн олтинчи жилд. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент: Фан, 2001. – Б.23.

<sup>22</sup> Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б.184.

Sharqshunos olim Silvestr de Sasi (1758-1838) tadqiqotlarida Alisher Navoiy nomi tilga olinadi – bularning barchasi buyuk shoir va davlat arbobining G‘arbda shuhrat qozonganidan dalolat beradi.

Rus sharqshunosi P.Savelev 1835 yilda nashr etilgan va maxsus Mir Alisherga bag‘ishlangan maqolasida ulug‘ shoirning faoliyatiga to‘liq haqqoniy baho berib, uning ijodi haqida qisqacha ma’lumot beradi. O‘sha davr navoiyshunosligi rivojida M.Nikitskiyning Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida muhim voqea bo‘ldi. U Davlatshohning “Tazkirat ush-shuaro”, So‘ma Mirzoning “Tuhfai Somi”, Sulton Husaynning “Majolis ul-ushshoq”, Mirxondning “Ravzat us-safo” kabi tarixiy-memuar asarlarida keltirilgan materiallarni umumlashtiradi. Temuriylar sulolasi hukmronligi davridagi siyosiy va adabiy hayotga, Nikitskiy, umuman olganda, Navoiyning adabiy va davlatchilik faoliyatini to‘g‘ri baholaydi<sup>23</sup>.

Nikitskiy ulug‘ shoirni munosib baholab, “Mir Alisher Sharq adabiyoti tarixida sharaflı o‘rin tutadi”, deb ta’kidlagan, rus sharqshunoslarini uning ijodiga alohida e’tibor berishga chaqirgan.

Professor N.N.Berezen (1818-1896) tomonidan tayyorlangan 1857 yilda Qozonda nashr etilgan “Turkiy kitobxon” kitobida Alisher Navoiyning ikki asari – “Vaqfiya” va “Munshaot”dan parchalar keltirilgan. Mashhur rus olimi V.V.Velyaminov-Zernov XVI-asrda Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan va “Abushka” nomi bilan mashhur bo‘lgan lug‘atning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab, 1868-yilda nashr etgan. Shuningdek, rus sharqshunosi N.I.Ilminskiy 1862 yilda Qozonda nashr etilgan turk-tatar tillariga bag‘ishlangan asarida Alisher Navoiyning adabiy o‘zbek tili rivoji yo‘lidagi xizmatlarini yuksak baholab, uni xalqimiz uchun fidokorona kurashgan shaxs sifatida tavsiflaydi<sup>24</sup>.

Katremer 1841 yilda Parijda Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn» va «Tarixi muluki Ajam» asarlarini nashr ettirdi.

Venger olimi G.Vamberi O‘rta Osiyoga bag‘ishlangan asarlarida Navoiy asarlaridan parcha va tarjimalar bergan. U “Mahbub ul-qulub”ning kirish qismini, “Farhod va Shirin”ning ayrim boblarini, shuningdek, ulug‘ shoirning boshqa asarlaridan parchalarni nemis tiliga tarjima qilgan.

Fransuz sharqshunos olimi M.Belen 1861 yilda “Aziatik” jurnalida “Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida” nomli katta hajmli maqolasini e’lon qildi<sup>25</sup>. Shu bilan birga «Majalis un-nafois» asari ustida katta hajmdagi asar yozgan, «Mahbub ul-qulub»ning ayrim boblarini tarjima qilgan. Aytish joizki, Nikitskiy va Belen asarlari XIX asr sharqshunoslari tomonidan to‘liq e’tirof etilgan tadqiqotlar hisoblangan, qolaversa, XX asr boshlarida Navoiyni o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

XIX asrda Sharq mamlakatlariga sayohat qilgan g‘arb olimlari, mustamlaka mamlakatlarda xizmat qilayotgan qadimiy buyumlarni ixlosmandlari, osori-atika yig‘uvchilari ilk fursatdayoq Navoiy asarlarining nusxalarini olib, o‘z vatanlariga olib ketishga harakat qildilar. Natijada, buyuk shoirning asarlari Buyuk Britaniya,

<sup>23</sup> См.: Никитский М. Эмир Низом Эд-Дин Али Шир в государственном и литературном его значении. – СПб, 1856.

<sup>24</sup> См.: Ильминский Н.И. Материалы к изучению киргизского наречия. - Казань, 1861.

<sup>25</sup> См.: Там же.

Fransiya, Germaniya, Italiya muzeylari, kutubxonalar va shaxsiy fondlarida juda ko'p miqdorda jamlangan. Ingliz sharqshunosi Ch. Rieu tomonidan 1888-yilda Londonda nashr etilgan va hozirda Britaniya muzeyida saqlanayotgan "Turkiy qo'lyozmalar katalogi" o'zbek mutafakkiri ijodiga katta qiziqish bildirilganidan dalolat beradi.

O'z katalogida mashhur manba va matnshunos Ch. Rieu, xususan, Alisher Navoiy ijodining 12 ta nodir qo'lyozma nusxalariga izoh berib, shoir shaxsiga katta hurmat bilan munosabatda bo'lganini, uning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "Mir Alisher turkiy tilning adabiy til mavqeini ko'tarishda eng katta xizmatlarini ko'rsatgan tarixiy shaxsdir. U yuksak madaniyatli inson va ajoyib mutafakkir va buni hamma e'tirof etadi. U, shubhasiz, turkiyzabon shoirlar ichida eng sermahsul shoirdir"<sup>26</sup>.

Yevropa sharqshunoslaridan E.Bloshe, M.Buvat, E.Braunlar ham Alisher Navoiy ijodini, asarlarining qo'lyozmalarini o'rgandilar. Xullas, E.Braun to'rt jildlik "Eron adabiyoti tarixi" asarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini yoritadi, ijodiga to'xtalib o'tadi. Braun shoir ijodini yuksak baholab, shunday yozadi: "Mir Alisherning ijodkor sifatida ham, qalam ahlining homiysi sifatidagi ahamiyati va ta'sirini ta'riflab bo'lmaydigan darajada buyukdir. U o'z davrining va o'z mamlakatining Eng katta xayrixohidir"<sup>27</sup>.

Shunday qilib, XIX asr Yevropa sharqshunosligida Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqish juda katta bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ular Alisher Navoiy davrida yaratilgan manbalarga tayanib, buyuk shoir va atoqli davlat arbobi shaxsiyati va ijodi masalalarini ilmiy izlanish ob'ekti darajasiga olib chiqdilar va shu orqali navoiyshunoslikning yangi bosqichiga zamin yaratdilar. Birinchidan, ular XV asr oxiri - XVI asr boshlariga oid va Navoiy haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qo'lyozma manbalarni umumlashtirib, ilmiy muomalaga kiritdilar.

Uchinchi paragrafda mustaqillik yillarida e'lon qilingan va bevosita Navoiydagi tasavvuf ta'limoti tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Mustaqillik sharofati bilan fanimiz mafkuraviy biryoqlamalikdan qutulib, erkin rivojlana boshladi. O'tmish mutafakkirlarining hayoti va ijodi, ilmiy va adabiy merosini xolis va chuqur o'rganish boshlandi. Mustaqillik yillarida navoiyshunoslikda totalitar tuzum davrida ta'qiqlangan mavzular, ya'ni buyuk shoir ijodining diniy-islomiy asoslari, zabardast mutafakkir tasavvufiga oid ko'plab tadqiqotlar yaratildi.

Mazkur dissertatsiya mavzusiga bevosita daxldor bo'lgan birinchi fundamental tadqiqot Malik Qoraboyevich Aripovning "Alisher Navoiy gumanizmi"<sup>28</sup> (rus tilida) monografiyasi bo'ldi. Unda atoqli faylasuf va olim Alisher Navoiy dunyoqarashi, insonparvarlik falsafasi, nihoyat, buyuk mutafakkir ijodidagi «Vahdat ul-vujud» ta'limotining namoyon bo'lishiga o'z qarashlarini berdi.

Mustaqillik yillarida fan doktori va nomzodi ilmiy darajasini olish uchun, 2017 yildan boshlab esa biz ishlab chiqayotgan mavzuning ayrim jihatlariga

<sup>26</sup> Ch. Rieu. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum, 1888. - P.273.

<sup>27</sup> E. Browne. A Literary History of Persia. Vol. III. - Cambridge, 1969. - P.505

<sup>28</sup> См.: Арипов М.К. Гуманизм Алишера Навои. - Ташкент: Узбекистан, 1991.



